



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 19 - may

VI-61-100-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

### **Angor tumani hududida “Yashil bog‘lar” hamda “Yashil jamoat parklari”ni tashkil etish to‘g‘risida**

So‘nggi yillarda aholi punktlarini ko‘kalamzorlashtirish, daraxt va butalarni muhofaza qilish hamda yashil maydonlarni kengaytirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Daraxt va buta ko‘chatlarini ekish, parvarishlash, aholining sayr qilish va madaniy xordiq chiqarish uchun yashil maydonlarni va parklarni kengaytirish va boshqa ko‘kalamzorlashtirish ishlari bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, investitsion faollik sur‘atlarining oshishi, sanoat ishlab chiqarish, qurilish va bunyodkorlik ko‘lamining keskin kengayishi aholi punktlariga tushayotgan ekologik yuklamani kamaytirish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz miqyosida daraxtlarni ko‘paytirishga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi tatbiq etilgan. Bunda daraxtlarni ekish va parvarish qilish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish, hududlarda “Yashil bog‘lar” va “Yashil jamoat parklari”ni barpo etish asosiy vazifa qilib belgilangan.

Tumanda daraxtlar, butalar va yashil hududlarni muhofaza qilish hamda ularning maydonlarini kengaytirish, ushbu sohada mas‘ul tashkilotlar faoliyatini yanada samarali tashkil etish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-46-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-sentabrda ““Yashil bog‘lar” va “Yashil jamoat parklari”ni barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 529-sonli qarorida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida hamda tuman hokimi o‘rinbosarining 2023-yil 18-maydagi 03-11/60-sonli xatiga asosan O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda

“Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-46-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-sentabrdagi ““Yashil bog‘lar” va “Yashil jamoat parklari”ni barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 529-sonli qarorida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida, tumandagi “Kattaqum” mahallasi hududidagi o‘zlashtirilgan yer maydonidan 3,6 gektar yer maydonida “Yashil bog‘lar”ni barpo etishga ruxsat berilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-46-sonli Farmonining 2a-ilovasidagi ro‘yxatga asosan tumandagi “Kattaqum” mahallasi hududida 6 gektar yer maydonida “Yashil jamoat parklari” barpo etilganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari U.Raxmatov, tuman qurilish bo‘limi (B.Usmonov), Davlat kadastrlari palatasining tuman filiali (E.Mengliyev), tuman Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘limi (O.Sherdilov), tuman irrigatsiya bo‘limi (Sh.Eshaliyev) hamda tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

– “Yashil bog‘lar” va “Yashil jamoat parklari”ni tashkil etish bo‘yicha loyiha smeta hujjatlarini tayyorlash uchun “O‘rmonloyiha” loyihalash instituti bilan shartnoma tuzish;

– “Yashil bog‘lar” hamda “Yashil jamoat parklari” tashkil etish uchun tanlangan yer maydonining konturini aniqlash, joylashgan o‘rni hamda chizma o‘lchamlarini belgilash, sug‘orish tizimini barpo etish (nasos, skvajina, hovuz, suv minorasi, ariq tortish ishlarini joriy etish), tuproq sharoiti (sho‘rxokligi, eroziyaga uchraganligi, toshloq, namlik darajasi, unumdorligi va x.k.) va boshqa takliflarni (foto va chizmalari bilan birga) loyihalash tashkilotiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (Q.To‘laganov)ga:

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-46-sonli Farmonining 20-bandiga asosan pudratchi etib “Yashil hudud” davlat unitar korxonasi belgilanganligini inobatga olib, “Yashil bog‘lar” va “Yashil jamoat parklari”ni barpo qilish ishlarini Surxondaryo viloyati hududiy “Yashil hudud” davlat unitar korxonasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish ishlarini amalga oshirsin.

5. Angor tuman Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘limi (O.Sherdilov) tashkil etilgan “Yashil bog‘lar” va “Yashil jamoat parklari” hududidagi har bir daraxtlarni shikastlanishi va nobud qilinganligi uchun javobgarlikni kuchaytirish, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini o‘rnatish vazifasi yuklatilsin.

6. “Yashil bog‘lar” va “Yashil jamoat parklari”ni tashkil etish, saqlash,

rivojlantirish tadbirlarini moliyalashtirish mahalliy budjetning qo‘shimcha mablag‘lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari U.Raxmatov hamda Sanoat, transport, qurilish kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi M.Sadatov zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**Q.Mardonov**